TOSHKENT VILOYATI YANGIYO`L SHAHAR HOKIMI
Q A R O R I

2022 - yil 7 - oktabr 328-10-196-Q/22 Yangiyo‘l shahar hokimligi

Yangiyo‘l shahrida umumiy o‘rta, o‘rta maxsus yoki boshlang‘ich professional ta’lim mussasalarida oxirgi o‘qish yilidagi fuqarolarni chaqiruv uchastkasida qayd etishni tashkil etish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida”gi Qonunga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish haqida”gi O‘RQ 718-son qonun imzolandi. Shunga asosan 18-moddasida belgilangan vazifalarni sifatli bajarilishini ta’minlash maqsadida, fuqarolarni chaqiruv uchastkasida qayd etish ishlari ular umumiy, o‘rta, o‘rta maxsus yoki boshlang‘ich professional ta’lim muassasalarida ohirgi o‘qish yilining oktabr-noyabr oylarida amalga oshirilishi belgilandi. Yuqoridagilarni inobatga olgan holda,

QAROR QILAMAN:

1. O‘zbekiston Respublikasining “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘risida”gi qonunining 18-moddasiga asosan 2022-yilning 1-oktabrdan 30-noyabrgacha Yangiyo‘l tumani Mudofaa ishlari bo‘limida 16-27 yoshdagi fuqarolar chaqiruv punktida avval qayd etilmagan fuqarolar harbiy hisob ro‘yxatiga olinsin.

2. Mahalla fuqarolar yig‘ini raislari tuman Mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limiga 16-27 yoshdagi fuqarolar avval chaqiruv punktlarida qayd etilmagan katta yoshdagi fuqarolarni kelishini ta’minlab berishga yordam bersinlar.

3. Harbiy ro‘yxatdan o‘tkazish komissiyasi tarkibi 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

4. Mulkchilik shaklidan qat’iy nazar tumandagi korxonalar, tashkilotlar va

muassasalar rahbarlariga malakali xodimlardan birini 2022-yilning 1-oktabrdan 30-noyabrgacha tuman Mudofaa ishlari bo‘yicha bo‘limiga 2-ilovaga binoan yuborish yuklatilsin.

5. Mulkchilik shaklidan qat’iy nazar korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlariga 16-27 yoshdagi fuqarolarni joylardan tuman Mudofaa ishlari bo‘limiga belgilangan vaqtda olib kelish uchun tuman mudofaa ishlari bo‘limi ko‘rsatmasiga binoan 3-ilova asosida texnika bilan ta’minlash yuklatilsin.

6. 2005-yilda tug‘ilgan yoshlarni 2022-yilda qayd etish davrida madaniy va ommaviy, siyosiy–tarbiyaviy ishlarini o‘tkazish 4-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. Tuman Mudofaa ishlari bo‘limi (N.Gapparov):

- 2022-yilning oktabr oyida barcha korxonalar, tashkilotlar va muassasalar rahbarlari, kadrlar bo‘limlari boshliqlari, harbiy ish yurituvchilari va harbiy ta’lim o‘qituvchilari bilan 16-27 yoshdagi fuqarolarni ro‘yxatga olish, unga tayyorgarlik ko‘rish uchun joylarda mashg‘ulotlar o‘tkazish topshirilsin.

8. Mahalla va nuroniylarni qo‘lab-quvatlash bo‘limi (A.Ibragimov), shahar Xalq ta’limi bo‘limi (M.Alimova):

- mahalla fuqorolar yig‘inlari raislariga, o‘quv yurtlari rahbarlariga 2022-yilning 1-oktabrga qadar shaharda yashovchi 16-27 yoshdagi fuqarolarning ro‘yxatini tuzishda tuman mudofaa ishlari bo‘limiga yordam berish hamda yoshlarni harbiy ro‘yxatga qayd etish davrida ularni tuman mudofaa ishlari bo‘limi tomonidan tasdiqlagan jadvalga asosan kelishini taminlash vazifasi topshirilsin.

9. Shahar tibbiyot birlashmasi (R.Samandarov):

- shahar chaqiruv uchastkasida 2022-yilning 1-oktabrdan 30-noyabr oyiga qadar qayd etiluvchi yoshlarni sog‘lik darajasini aniqlash maqsadida shifokor mutaxassislarni tuman mudofaa ishlari bo‘limiga jalb qilish;

- qayd etiluvchi yoshlarni “qoqshol”, “botulizm” va boshqa kasalliklarga qarshi emlanganligini aniqlash, bu haqida ularni hujjatlariga belgi qo'yish;

- tibbiy ko‘rikdan o‘tkazuvchi hodimlarni kerakli hujjatlar va tibbiy asbob–uskunalar bilan ta’minlash;

- 2022-yilning 1-oktabrdan 30-noyabrgacha tuman Mudofaa ishlari bo‘limiga qayd etiluvchi yoshlarning F-25 varaqasini olib kelish alohida hisobda turgan kasallarni ro‘yxatga qo‘yish vazifasi yuklatilsin;

10. Shahar ichki ishlari bo‘limi (N.Saidov):

-tuman Mudofaa ishlari bo‘limi talabnomasiga binoan harbiy ro‘yxatdan o‘tishdan bo‘yin tovlagan yoshlarni olib kelish hamda chaqiruv uchastkasida jamoat tartibini saqlash maqsadida 2 nafar ichki ishlar hodimini tuman mudofaa ishlari bo‘limiga yuborishni ta’minlash topshirilsin.

11. Shahar madaniyat bo‘limi (Z.Maxamatov):

- chaqiruv uchastkasidagi tashviqot markazini jihozlash, uni ko‘rgazmali materiallar bilan ta’minlab turish, rassom ajratish, konsert ko‘rsatish tashkillashtirsin.

12. Tuman Mudofaa ishlari bo‘limi boshlig‘i (N.Gapparov):

- shahar hokimligiga 2022-yilning 5-dekabrigacha fuqarolarni harbiy ro‘yxatga qayd etish ishlari yakunlari haqida axborot berish topshirilsin.

13. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish shahar hokimining o‘rinbosari (M.Xasanov) zimmasiga yuklatilsin.

Shahar hokimi **F.Mirzayev**

Yangiyo‘l shahar hokimining
2022 yil 7 oktabrdagi
328-10-196-Q/22-son qaroriga
1-ilova

16-27 yoshdagi fuqarolarning tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish maqsadida tuzilgan markaziy kasalxona xizmatchilaridan iborat komissiya

T A R K I B I

Podpolkovnik N.Gapparov - ro‘yxatdan o‘tkazish komissiyasining raisi

ASOSIY TARKIBDA :

№	Lavozimi	F.I.O.
1	Ichki kasalliklar shifokori	Abdullayeva Gulnoza
2	Jarroh shifokori	Qosimov Abduraxmon
3	Quloq, burun, tomoq shifokori	Normurodov Suvon
4	Rruhiy kasalliklar shifokori	Alimatov Gayrat
5	Asab kasalligi shifokori	Qosimov Aburaxmon
6	Ko‘z kasalligi shifokori	Xajayev Jo‘raxo‘ja
7	Teri tanosil kasalligi shifokori	Yuldashyev Shovkat
8	Tish shifokori	Ibadullayev Akrom
9	Kotiba	Lavozimiga ko‘ra
10	Hamshira	Lavozimiga ko‘ra
11	Hamshira	Lavozimiga ko‘ra
12	Hamshira	Lavozimiga ko‘ra
13	Hamshira	Lavozimiga ko‘ra
14	Hamshira	Lavozimiga ko‘ra

Yangiyo‘l shahar hokimining
2022 yil 7 oktabrdagi
328-10-196-Q/22-son qaroriga
2-ilova

16-27 yoshdagi fuqarolarni ro‘yxatga olishni ta’minlash uchun quyidagi tashkilotlardan yordamchilar ajratish

J A D V A L I:

№	Korxona va tashkilotlar nomlari	Ajratilgan yordamchilar soni	Texnik hodimning F.I.SH
1	Yangiyo‘l shahar BIOKIMYO OAJ	1	Nurmatova Xadicha Yuldashevna

Yangiyo‘l shahar hokimining
2022 yil 7 oktabrdagi
328-10-196-Q/22-son qaroriga
3-ilova

2005-yilda tug‘ilgan fuqarolarni tibbiy ko‘rikdan sifatli o‘tkazish maqsadida korxona, tashkilotlar tomonidan avtoulovlar ajratish

J A D V A L I :

№	Korxonalar va tashkilotlar nomi	Texnik beriladigan kunlar
1	YANGIYO‘L SHAHAR GAZ FILIALI	2022.01.10 dan 2022.30.10 gacha
2	SILVER TRANS MCHJ	2022.01.11 dan 2022.30.11gacha

Yangiyo‘l shahar hokimining
2022 yil 7 oktabrdagi
328-10-196-Q/22-son qaroriga
4-ilova

2005-yilda tug‘ilgan yoshlarni 2022-yilda qayd etish davrida madaniy va ommaviy, siyosiy–tarbiyaviy ishlarni o‘tkazish.

№ t/r	O‘tkaziladigan tadbir nomi	Tadbirga mas’ul	Kim jalb etilgan	O‘tkazish sanasi	O‘tkazish vaqti
1	Suhbat: yoshlarni hisobga olish jarayoni tushuntirish	CHBB	Chaqiruv bo’lim boshlig’i	Har kuni	9.00 -9.15
2	Suhbat: O‘zbekiston Respublikasi. “Umumiy harbiy majburiyat va harbiy hizmat to‘g‘risida” gi qonuni. O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolarni burchlarini bajarish to‘g‘risida	Madaniy va ommaviy, siyosiy-tarbiyaviy ishlari boshlig‘i “Ma’naviyat va ma’rifat” bo‘limi vakili	Mudofaa harbiy xizmatchilari	Har kuni	10.00-16.00
3	Suhbat: O‘zbekiston Respublikasi Harbiy xizmatchilariga berilgan imtiyozlar	Madaniy va ommaviy, siyosiy-tarbiyaviy ishlari boshlig‘i “Ma’naviyat va ma’rifat” bo‘limi vakili	Shaxsiy tarkib	Dushanba, seshanba	10.00-12.00
4	UVU, O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar veterenlari, internatsional jangchilar bilan uchrashuv	Madaniy va ommaviy, siyosiy-tarbiyaviy ishlari boshlig‘i	Mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash bo‘limi	Chorshanba, Juma	10.00-12.00
5	Ma’ruza: O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarini rivojlantirish asoslari	Madaniy va ommaviy, siyosiy-tarbiyaviy ishlari boshlig‘i “Ma’naviyat va ma’rifat” bo‘limi vakili	Mudofaa harbiy xizmatchilari	Payshanba	14.00-15.00
6	Stol o‘yinlari, gazeta, jurnal o‘qish	“Ma’naviyat va ma’rifat” bo‘limi vakili	Ma’naviyat bo‘limi vakili	Har kuni	12.00-13.00
7	Suhbat : Yoshlar bilan O‘zbekiston Respublikasi “Jinoyat kodeksi”, “Harbiy jinoyatlar”	Madaniy va ommaviy, siyosiy-tarbiyaviy ishlari boshligi	Shahar prokuraturasi vakillari	Payshanba	10.00-12.00

8	Yakuniy suhbat: yoshlar o‘zini vijdonan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar safida xizmat qilishga tayyorlash, har bir yoshni, har bir fuqaroni fidoiy burchi.	Madaniy va ommaviy, siyosiy-tarbiyaviy ishlari boshlig‘i “Ma’naviyat va ma’rifat” bo‘limi vakili	Mudofaa harbiy xizmatchilari	Har kuni	16.00-17.00